




FARG'ONA VILOYATI  
STATISTIKA  
BOSHQARMASI

**FARG'ONA VILOYATIDA  
SO'G'LIQNI SAQLASH  
SOHASINING  
ASOSIY STATISTIK  
KO'RSATKICHLARI**  
*(2024- yil 1- yanvar holatiga)*








## Statistik ko'rsatkichlar

- ❖ **Sog'liqni saqlash statistikasi** – sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini (sog'liqni saqlash muassasalari tarmog'i, ularning holati va jihozlari, tibbiyot xodimlari), butun aholi va uning alohida kontingentlarining sog'lig'i holatini o'rganadigan statistika bo'limi; umumiy odamlar va uning alohida guruhlarini orasida kasallanishning tarqalishi, tuzilishi va chastotasi.
- ❖ **Tibbiyot muassasalari** – tarmog'iga barcha mulkchilik shaklidagi shifoxona va ambulatoriya, shoshilinch tibbiy yordam, ona va bola salomatligini muhofaza qilish kiradi.
- ❖ **Shifoxona o'rinlari** – statsionar davolash-profilaktika muassasa-laridagi (kasalxona, tug'ruqxona, shifoxona, ixtisoslashtirilgan dispanser va boshqalar) ma'lum hudud aholisiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan yotoqxonalar majmuasi. Bemorlarni tibbiy ixtisoslashtirish uchun barcha yotoq va yotoqxonalar bilan ta'minlash, qoida tariqasida, 10 ming kishiga hisoblab chiqiladi.
- ❖ **Shifokorlarning umumiy soniga yil oxirida tibbiyot, sanitariya muassasalarida**, ijtimoiy ta'minot muassasalari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash institutlarida va hokazolarda ishlayotgan oliy tibbiy ma'lumotli barcha mutaxassislar kiradi.
- ❖ **Tibbiyot xodimlarining umumiy soniga tibbiy-sanitariya tashkilotlarida**, ijtimoiy ta'minot muassasalarida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, mehribonlik uylarida va boshqalarda ishlaydigan o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shaxslar (tish shifokorlaridan tashqari) kiradi.
- ❖ **Joriy yilda kasallik turi bo'yicha birinchi tashxis qo'yilgan bemorlar (holatlar) soni** – kasallanish darajasi bilan tavsiflanadi, uning darajasi birinchi tashxis qo'yilgan bemorlar sonining o'rtacha yillik aholi soniga nisbatan belgilanadi.




# FARG'ONA VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Farg'ona viloyatida shifoxona muassalari soni\* (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassalari sonini qo'shgan holda, 2024-yil 1-yanvar holatiga Farg'ona viloyatida shifoxona muassalari soni 135 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yil 1-yanvarga nisbatan 10 tagacha oshgan.

## Farg'ona viloyatida shifoxona muassalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi <sup>1)</sup> (2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)



2024- yil 1- yanvar holatiga shifoxona muassalari sonining eng katta qismi Farg'ona (43 ta), Qo'qon (19 ta ) shaharlari va Farg'ona tumaniga (8 ta) to'g'ri kelgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Bag'dod (1 ta) tumanida kuzatilgan.


\* Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



## FARG'ONA VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

### Farg'ona viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Farg'ona viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni 2024-yilda 69 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yil 1-yanvarga nisbatan 8 taga (ya'ni 13,1 foizga) oshgan.

### Farg'ona viloyatida, mulkchilik shakli bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

(2024 yil 1- yanvar holatiga, birlik)



2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida eng ko'p mulkchilik shakli bo'yicha, kichik tadbirkorlik (biznes) subyektida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalari soni Farg'ona shahrida (26 ta), Qo'qon shahrida (6 ta) va Oltiariq (5 ta) viloyatlarida qayd etilgan, boshqa hududlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Quvasoy, Marg'ilon shaharlarida, Quva, Qo'shtepa, So'x, Furqat tumanlarida (1 tadan) kuzatilgan.



# FARG'ONA VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mulkchilik shaklidagi ambulatoriya-poliklinikalari soni\*


(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Farg'ona viloyatida ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. Ularning o'sishi 2020-yildan 2024- yilgacha bo'lgan davrda 34,3% ni tashkil etdi.

## Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mulkchilik shaklidagi ambulatoriya-poliklinikalarining shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi\*

(2024-yil 1-yanvar holatiga, birlik)




2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida eng ko'p Farg'ona viloyatida ambulatoriya - poliklinika muassasalari soni Farg'ona (129 ta), Qo'qon (74 ta) shaharlarida qayd etilgan, boshqa shahar va tumanlar kesimida solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar So'x (18 ta) tumanida kuzatilgan.

\* Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda




# FARG'ONA VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar soni (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, birlik)



Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 458 tani tashkil etdi.

## Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalarning shahar va tumanlar kesimida taqsimlanishi (2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)



2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra viloyatida eng ko'p ambulatoriya poliklinikalari Farg'ona shahrida (102) va Qo'qon shahrida (54) kichik biznes subyektlari sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.






# FARG'ONA VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


## Farg'ona viloyatida shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni\*

(tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming birlik)



Aholi uchun shifoxona muassasalarida bemor o'rinlari soni barqaror o'sib bormoqda. 2024- yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 17,4 ming o'rinni tashkil qildi.

## Farg'ona viloyati shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni shahar va tumanlar kesimida\* (2024- yil 1- yanvar holatiga, birlik)




2024- yil 1- yanvar holatiga viloyatda shifoxona o'rinlari soni 17,4 ming o'rinni tashkil etdi. Shifoxona muassasalarida eng ko'p o'rinlari soni Farg'ona shaharida 4,6 ming o'rin, Qo'qon shaharida 1,8 ming o'rin hamda Farg'ona tumanida 1,7 ming o'rin kuzatilgan.

\* Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda



# FARG'ONA VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


## Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni\* (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)



2020-yil yilgacha 1-yanvardan 2024-yilgacha Farg'ona viloyatida shifokorlar soni 8,1 ming kishidan 9,2 ming kishiga ko'paydi.

## Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar soni shahar va tumanlar kesimida\*

(2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)



2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan vrachlarning eng yuqori soni Farg'ona shahrida (3,1 ming kishi), Qo'qon shahrida (0,8 ming kishi) ro'yxatga olingan. Marg'ilon shahrida 504 ta shifokor, Bog'dod tumanida 350 ta va Rishton tumanida 336 ta shifokorlar faoluay yuritmoqda.


\* Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda





# FARG'ONA VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


## Farg'ona viloyati bo'yicha, mulkchilik shakli kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni (tegishli yilning 1 yanvar holatiga, ming kishi)



Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni 2020-yildan 2024 – yilgacha 0,9 mingdan 1,8 minggacha oshgan.

## Farg'ona viloyati bo'yicha, mulkchilik shakli kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlar soni shahar va tumanlar kesimida

(2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)




Kichik tadbirkorlik (biznes) subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning eng yuqori soni Farg'ona shahrida 0,6 ming kishi, Qo'qon shahrida 0,2 ming kishi, Marg'ilon shahrida – 0,1 ming kishini hamda Buvayda tumanida – 0,1 ming kishini tashkil etdi.




## Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning gender bo'yicha taqsimlanishi

(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



## Vrachlar malaka toifalari bo'yicha taqsimlanishi

(2024- yil 1-yanvar holatiga, % da)



Shifokorlarning katta qismi yuqori malakaga ega: ularning 35,2 foizi eng yuqori toifaga ega. Birinchi va ikkinchi toifadagi shifokorlar mos ravishda 11,7% va 9,1% ni tashkil qiladi. Uchinchi toifa mutaxassislari 1,2 foizni tashkil etsa, 42,8 foizi toifaga ega bo'lmagan mutaxassislardir.



## Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan vrachlarning gender bo'yicha taqsimlanishi \*

(tegishli yilning 1- yanvar holatiga, ming kishi)

1,1	Farg'ona sh	2,1
0,4	Qo'qon sh	0,5
0,1	Quvasoy sh	0,1
0,2	Marg'ilon sh	0,3
0,1	Oltiariq	0,2
0,08	Qo'shtepa	0,3
0,08	Bag'dod	0,2
0,1	Buvayda	0,3
0,1	Beshariq	0,2
0,2	Quva	0,3
0,1	Uchko'prik	0,2
0,1	Rishton	0,2
0,1	So'x	0,1
0,1	Toshloq	0,1
0,2	O'zbekiston	0,2
0,1	Farg'ona	0,2
0,1	Dang'ara	0,2
0,1	Furqat	0,1
0,1	Yozyovon	0,2



Ayollar



Erkaklar

Farg'ona viloyatida shifokorlar bo'yicha gender taqsimoti aksariyat hududlarda erkaklarning ustunligini ko'rsatadi. Ayollar va erkaklar orasida shifokorlarning eng ko'p soni Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon shaharlarida qayd etildi. Eng kam shifokorlar esa Quvasoy shahar, Yozyovon va So'x tumanlariga to'g'ri keladi.


\* Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda






# FARG'ONA VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Farg'ona viloyatida o'рта tibbiyot xodimlari soni\* (tegishli yilning 1-yanvar holatiga, ming kishi)



Farg'ona viloyatida o'рта tibbiyot xodimlari soni 2020 - yilda 43,9 ming kishidan 2024 - yilda 45,6 ming kishiga ko'paydi. Ushbu davrda o'sish 1,7 ming kishini tashkil etdi.

## Shahar va tumanlar bo'yicha o'рта tibbiyot xodimlari soni\* (2024- yil 1-yanvar holatiga, ming kishi)



2024- yil 1 yanvar holatiga Farg'ona viloyatida eng ko'p faoliyat yuritayotgan o'рта tibbiyot xodimlari soni Farg'ona shahrida 12,2, Qo'qon shahrida 4,1 hamda Quva tumanida 2,9 ming kishini tashkil etdi.

\* Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda




# FARG'ONA VILOYATIDA SO'G'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

## Farg'ona viloyatida aholining kasalliklarga chalinishi (tegishli yilning 1- yanvar holatiga, 100 000 aholiga nisbatan)



## Farg'ona viloyatida aholining kasalliklarga chalinishi shahar va tumanlar bo'yicha (2024- yil 1- yanvar holatiaga, 100 000 aholiga nisbatan)



Farg'ona viloyatida aholining kasallanish darajasi hudular bo'yicha sezilarli darajada farq qiladi. Shunday qilib, uning eng yuqori ko'rsatkichlari Farg'ona shahrida qayd etilgan (100 ming aholiga 398 525), bu aholisining yuqori zichligi bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, Quvasoy shahrida eng kam kasallik qayd etilgan (42 188).

Izoh: Farg'ona shahrida joylashgan Markaziy tibbiyot muassasalarining soni va respublikaning barcha hududlaridan poytaxtga davolanish uchun kelgan bemorlarning ko'pligi sababli aholining birlamchi kasalliklari ko'rsatkichi 100 ming kishidan oshishi mumkin.




## Farg'ona viloyatida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni\*

(tegishli yilning 1-yanvar holatiga, mi)



## Shahar va tumanlar bo'yicha shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni\*

(2024- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)




Bemorlarning aksariyati Farg'ona shahrida (157 ming kishi), Qo'qon shahrida (77 ming kishi) va Farg'ona tumanida (39 ming kishi) shifoxonalarda davolangan. Eng kam ko'rsatkichlar Yozyovon tumnidas (17 ming kishi), Quvasoy shahrida (15 ming kishi) va So'x tumanida (11 ming kishi) qayd etilgan.

\* Shahar va tumanlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda





**Farg'ona viloyatida kasalliklarning asosiy  
sinflari bo'yicha aholining kasalliklarga chalinishi  
(100 000 aholiga)**



1) Perinatal davrdagi bolalar

2) 15-49 yoshdagi ayollar



**Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:  
Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish  
statistikasi bo'limi**



**Farg'ona viloyati statistika  
boshqarmasi**



**e-mail: [far@stat.uz](mailto:far@stat.uz)**



**Manzil: 100170, Farg'ona sh., Oq  
yo'l ko'chasi, 104 A uy**



**[www.farstat.uz](http://www.farstat.uz)**



**Tel.: +998 73 241-98-28**



**[facebook.com/farstataxborot](https://facebook.com/farstataxborot)**

